

**MUHAMMAD RIZO OGAHINYING IJODIY MEROSINI LINGVISTIK
TAHLIL ETGAN OLIMLAR**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq xalqlari tillari va adabiyoti

institute Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi

70230101 Lingvistika (fors tili) yo'nalishi I bosqich magistranti

Jamoliddinova Sharifa Faxriddinovna

sharifa2003a@mail.ru

+998903565644

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiy ijodiy merosini lingvistik tahlil etgan olimlarning ilmiy ishlari va xulosalari tahlil qilinadi. Ogahiy asarlarining leksik-semantik, grammatik va stilistik xususiyatlari, ularning Xorazm adabiy muhiti va turkiy tillar rivojlanishidagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda R.Majidiy, N.Komilov, A.O'razboyev, Q.Yusupova, H.Dadaboyev, F.Tekin kabi olimlarning Ogahiy asarlariga oid lingvistik izlanishlari va ularning xulosalari keltirilgan. Maqolada shoirning she'riyati va tarixiy asarlarida ishlatilgan til birliklarining o'ziga xosligi, terminologik tizimi hamda uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ogahiy merosining lingvistik jihatlarini o'rganish bizga til taraqqiyotini tushunishga, hozirgi til bilan solishtirishga imkon beradi. Ushbu tadqiqot Ogahiy asarlarining tilshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur o'rganilishi lozimligini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Muhammadrizo Ogahiy, lingvistik tahlil, o'zbek mumtoz adabiyoti, ilmiy tadqiqotlar, tilshunoslik, adabiy meros.

Annotation: This article analyzes scientific research and conclusions of scholars who have studied the creative heritage of Muhammad Rizo Agahi from a linguistic perspective. It examines the lexical-semantic, grammatical, and stylistic features of Agahi's works, as well as their role in the literary environment of Khorezm and the development of Turkic languages. The study presents linguistic research and conclusions of scholars such as R. Majidiy, N. Komilov, A.

O'razboyev, Q. Yusupova, H. Dadaboyev, and F. Tekin, dedicated to Agahi's works. The article analyzes the linguistic characteristics, terminological system, and stylistic features used in his poetry and historical works. Studying the linguistic aspects of Agahi's heritage allows us to understand the development of the language and compare it with the modern language. This research substantiates the necessity of an in-depth linguistic study of Agahi's works.

Keywords: Muhammad Rizo Ogahiy, linguistic analysis, Uzbek classical literature, scientific research, linguistics, literary heritage.

Аннотация: В данной статье анализируются научные исследования и выводы ученых, изучавших творческое наследие Мухаммада Ризо Агахи с лингвистической точки зрения. Рассматриваются лексико-семантические, грамматические и стилистические особенности произведений Огахи, а также их роль в литературной среде Хорезма и развитии тюркских языков. В исследовании приводятся лингвистические изыскания и выводы таких ученых, как Р.Маджидий, Н.Комилов, А.Ўразбоев, Қ.Юсупова, Ҳ.Дадабоев, Ф.Тэкин, посвященные произведениям Агахи. В статье анализируются языковые особенности, терминологическая система и стилистические характеристики, используемые в его поэзии и исторических произведениях. Изучение лингвистических аспектов наследия Агахи позволяет нам понять развитие языка и сравнить его с современным языком. Данное исследование обосновывает необходимость глубокого изучения произведений Агахи с точки зрения лингвистики.

Ключевые слова: Мухаммадризо Огахий, лингвистический анализ, узбекская классическая литература, научные исследования, языкознание, литературное наследие.

Muhammad Rizo Ogahiy XIX asrning taniqli shoir, tarixchi va yozuvchisi bo'lib, Xiva xonligidan(bugungi O'zbekiston hududida joylashgan) bo'lgan. U Markaziy Osiyo adabiyoti va tarixshunosligiga qo'shgan hissasi bilan tanilgan bo'lib asosan fors va chig'atoy turkiy tillarida ijod qilgan. Ogahiy o'zining tarixiy

asarlari bilan mashhur bo'lib, Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etgan. Ogahiy, Alisher Navoiy kabi klassik shoirlar an'alarini davom ettirgan holda, chig'atoy turkiy tilida ham she'rlar yozgan. Uning she'rlari sevgi, falsafa va tabiat go'zalligi mavzularini o'z ichiga olgan bo'lib, juda ko'p badiiy mahorat bilan yozilgan.

Ogahiy ijodiy merosini o'rganishga qator olimlar kirishganlar jumladan, F. Tekin - turk tilshunosi va adabiyotshunosi bo'lib, Chig'atoy adabiyoti, xususan, XVII-XIX asrlardagi xonliklar davri adabiy muhitini o'rganishga katta hissa qo'shgan. Uning ilmiy izlanishlari asosan Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklaridagi adabiy jarayonlar hamda bu davrda yetishib chiqqan muhim shaxsiyatlar faoliyatiga qaratilgan. Tekin, shuningdek, turk tillari, jumladan, turk va o'zbek tillaridagi harbiy terminologiyani solishtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning "Hanliklar davri Chig'atoy adabiyoti" nomli maqolasi bu boradagi muhim asarlaridan biridir¹. o'zining "Ogahiy devoni ("Ta'viz ul-oshiqin") ning lisoniy xususiyatlari (Tovush va tuzilishi)" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida Ogahiy devonining fonetik va grammatik xususiyatlarini batafsil tahlil qilgan². Professor o'zining doktorlik dissertatsiyasini 2001-yilda Erzurumdagi Otaturk Universiteti Sotsial bilimlar tadqiqot insitutida "Ogahiy devoni ("Ta'viz-ul-oshiqin") ning lisoniy xususiyatlari (Tovush va tuzilishi)" mavzusida olib borgan. Bu doktorlik desertatsiyasi 258 bet va 4 bo'limdan tashkil topgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Ogahiy she'riyatida eski turkiy va arab-fors leksik birliklari keng qo'llangan bo'lib, bular adabiy tilning boyishiga xizmat qilgan.

Q. Yusupova Muhammadrizo Ogahiy ijodini lingvistik jihatdan o'rganishda muhim hissa qo'shgan olimalardan biridir. o'zbek tilshunosligi sohasida faoliyat yuritayotgan olima bo'lib, asosan lingvopoetika va psixolingvistika yo'nalishlarida tadqiqotlar olib boradi. Uning ilmiy izlanishlari Ogahiy asarlarining lingvopoetik xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. "Munis va Ogahiy ijodida

¹ TEKIN F. Hanliklar davri Chig'atoy adabiyoti. Edebiyat Marketi, 2015.

² Tekin F. "Ogahiy devoni ("Ta'viz ul-oshiqin") ning lisoniy xususiyatlari (Tovush va tuzilishi)" dok.dissert. 2001. – b 5.

lingvopoetik uyg'unlik"³ maqolasida Yusupova Munis va Ogahiy asarlaridagi lingvopoetik uyg'unlikni o'rganadi. Maqolada ikki shoir ijodidagi til vositalari va badiiy uslublarning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Yusupova bu asarlar tilining leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash orqali ularning adabiy qiymatini yoritishga harakat qiladi.

Yana bir olimimizni lingvistik tahlil qilmagan bo'lsalar ham, olimlar qatoriga qo'shmasak bo'lmasdi. R.Majidiy Muhammadrizo Ogahiy ijodiy merosini o'rganishda muhim ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirgan olimlardan biri hisoblanadi. U Ogahiy asarlarini keng ommaga tanitish, ularni ilmiy tahlil qilish va matnshunoslik asosida chop etishga katta e'tibor qaratgan. 1) 1958-yilda u Ogahiy asarlarining "Tanlangan asarlar" to'plamini nashrga tayyorlashda ishtirok etgan bu to'plam shoirning eng sara asarlarini o'z ichiga oladi. Ushbu nashr Ogahiy ijodini o'rganish va keng kitobxonlar ommasiga taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etgan. 2) 1960-yilda "Ta'viz ul-oshiqin" devonining nashr etilishida faol qatnashgan. Bu devon shoirning lirik she'rlarini jamlagan bo'lib, unda muhabbat, tabiat va insoniy tuyg'ular mavzulari yoritilgan. Ushbu nashr Ogahiy she'riyatining nozik jihatlarini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. 3) 1971-1980-yillar oralig'ida Ogahiy asarlarining 6 jildlik ilmiy nashrini tayyorlashda faoliyat ko'rsatgan. Ushbu nashrlar Ogahiy merosining keng tadqiq etilishi va o'rganilishiga zamin yaratgan. Ushbu to'plam shoirning turli janrlardagi asarlarini, jumladan, devonlari, tarixiy asarlari va tarjimalarini o'z ichiga oladi. Mazkur nashr Ogahiy merosini to'liq va tizimli ravishda o'rganish imkonini bergan.

Najmiddin Komilov o'zbek adabiyotshunos olimi bo'lib, Muhammadrizo Ogahiy ijodini chuqur o'rgangan. U nafaqat nomzodlik, balki doktorlik dissertatsiyasini ham Ogahiy ijodiga bag'ishlagan. Komilovning tadqiqotlari asosan Ogahiyning tarjimonlik faoliyatiga qaratilgan bo'lib, u shoirning o'zbek adabiyotiga kiritgan tarjima asarlarini batafsil tahlil qilgan. Uning fikricha, Ogahiy tomonidan mahorat bilan tarjima qilingan asarlar o'zbek adabiyoti tarixining muhim qismini

³ Yusupova, Q. (2023). MUNIS VA OGAHIY IJODIDA LINGVOPOETIK UYG'UNLIK. Innovative Development in Educational Activities, 2(12), 48–52.
<https://scientific-jl.com/>

tashkil etadi va ularni o'rganmaslik bu ulkan adibning ijodiga yetarli e'tibor bermaslik bo'ladi⁴. Shuningdek, Komilov Ogahiy tarjimalarini asl nusxalar va boshqa tarjimalar bilan solishtirib, shoirning tarjimonlik mahoratini yuksak baholagan. Uning tadqiqotlari Ogahiy tarjimalarining o'zbek adabiyoti tarixidagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

A.O'razboyev - taniqli o'zbek filologi va lingvisti bo'lib, Muhammadrizo Ogahiy ijodini lingvistik nuqtai nazardan chuqur o'rgangan. Uning ilmiy izlanishlari asosan Ogahiy asarlaridagi leksik xususiyatlarni tahlil qilishga qaratilgan. Filologiya fanlari doktori A.O'razboyev "Muhammad Rizo Ogahiy - jahoniy siymo" mavzusida ma'ruza qilib, Ogahiy asarlarining leksik-semantik tizimini o'rgangan. Uning tadqiqotlari shoir ijodida arabcha va forsha so'zlarning semantik ahamiyati, ularning she'riy tuzilishga ta'sirini ochib beradi.

Nomzodlik dissertatsiyasi: "Ogahiyning 'Riyo'z ud-davla' asarida ijtimoiy-siyosiy leksika" (2009)

Ushbu tadqiqotda A.O'razboyev "Riyo'z ud-davla" asarida qo'llangan ijtimoiy-siyosiy terminlarni o'rganib, ularning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilgan. Tadqiqot davomida eski turkiy, arab va fors tillaridan kirib kelgan atamalarni qiyosiy tahlil qilib, Ogahiy davridagi ijtimoiy-siyosiy hayotning til vositalarida aks etishini ko'rsatgan.

Doktorlik dissertatsiyasi: "Ogahiyning tarixiy asarlari leksikasi" (2018) Bu ilmiy ishda A.O'razboyev Ogahiy qalamiga mansub barcha tarixiy asarlarning leksik xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan. Xususan, tarixiy terminlar, ma'muriy-huquqiy tushunchalar, harbiy atamalar va madaniy-tarixiy jarayonlarni ifodalovchi til birliklarini lingvistik jihatdan o'rganib, Ogahiy asarlarining boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirgan. Natijada, shoir va tarixchining o'ziga xos til uslubi va leksik boyligi aniqlangan. Umuman olganda, A.O'razboyevning ilmiy izlanishlari Ogahiy asarlarining lingvistik tahliliga katta hissa qo'shib, shoirning leksik xazinasini va tarixiy jarayonlarni ifodalashdagi til

⁴ Комилов Н. Мухаммадризо Огахийнинг таржимонлик маҳорати. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация иши. – Тошкент, 1970. 6-бет.

vositalarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Hamidulla Dadaboyev - o'zbek tilshunosligi sohasidagi yetakchi olimlardan biri bo'lib, o'zbek tili tarixi, leksikologiyasi va harbiy tilshunoslik yo'nalishlarida katta hissa qo'shgan. U Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida professor lavozimida faoliyat yuritgan. Olimning ilmiy izlanishlari asosan o'zbek tilining tarixi, leksikologiyasi va harbiy terminologiyaga qaratilgan. U o'zbek tilining leksikologik tadqiqotlarini rivojlantirishda muhim ishlarni amalga oshirgan.

“Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi xususida”⁵ nomli maqolasida Ogahiy asarlarining lingvistik jihatdan o'rganilishiga katta hissa qo'shgan tadqiqotlardan biridir. U terminlarning kelib chiqishi, ularning semantik va funksional xususiyatlari, shuningdek, tarixiy ahamiyatini tahlil qilgan. Ushbu maqola tilshunoslik, tarix va adabiyotshunoslik uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Muhammadrizo Ogahiy ijodi lingvistik jihatdan chuqur tahlil qilingan bo'lib, ushbu tadqiqotlar shoirning til boyligi, badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalana olishini ko'rsatadi. Ogahiy asarlarining lingvistik tahlili nafaqat adabiy tilimiz tarixini o'rganish, balki zamonaviy o'zbek tilining taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash uchun ham muhim ahamiyatga ega.

R.Majidiy, N.Komilov, A.O'razboyev, Q.Yusupova, H.Dadaboyev, F.Tekin kabi olimlar Ogahiy asarlarining lingvistik xususiyatlarini tahlil qilib, uning ijodiy merosini ilmiy asosda tadqiq etishga katta hissa qo'shgan. Q.Yusupova shoirning lingvopoetik xususiyatlarini o'rganib, uning asarlaridagi badiiy til vositalari va stilistik xususiyatlarini yoritgan. N.Komilov esa Ogahiy tarjimonlik faoliyatini tadqiq qilib, uning tarjimalarining o'zbek adabiyoti rivojiga ta'sirini tahlil qilgan.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan A.O'razboyev Ogahiy asarlarining leksik-semantik tizimini o'rganib, uning tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlarni tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari Ogahiy asarlarida arabcha va forsha unsurlar qanday qo'llanilganini ham ochib beradi. H.Dadaboyev esa shoirning tarixiy

⁵ Dadaboyev H. *Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi xususida* // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari (Ilmiy maqolalar to'plami) – №3. – Toshkent, 2009. – B. 21-24.

<https://scientific-jl.com/>

asarlarida ishlatilgan terminologik tizimni o'rganib, uning lingvistik jihatdan ahamiyatini aniqlagan.

Bundan tashqari, F.Tekin Ogahiy devonining fonetik va grammatik xususiyatlarini o'rganib, Chig'atoy adabiyoti va Xiva xonligi adabiy muhitiga oid tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari Ogahiy tilining tarixiy va qiyosiy tahliliga qaratilgan bo'lib, eski turkiy va arab-fors leksik birliklarining she'riy tuzilishga ta'sirini yoritishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Ogahiy ijodini ommalashtirish va ilmiy asosda tadqiq etish maqsadida uning asarlari to'plamlari nashr etilgan. R.Majidiy 1958-yilda "Tanlangan asarlar" to'plamini, 1960-yilda esa "Ta'viz ul-oshiqin" devonini chop etishda ishtirok etgan. 1971-1980-yillarda Ogahiy asarlarining 6 jildlik ilmiy nashrini tayyorlash ishlarida qatnashib, shoir merosining keng tadqiq etilishiga asos yaratgan.

Umuman olganda, ushbu tadqiqotlar Ogahiy asarlarining lingvistik va adabiy jihatdan chuqur o'rganilishi lozimligini ko'rsatadi. Uning til boyligi, stilistik uslubi, tarjimonlik mahorati va tarixiy asarlardagi terminologik tizimi o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi uchun qimmatli ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu izlanishlar shoirning ijodiy merosini kengroq yoritishga va kelajak tadqiqotlari uchun yangi yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. TEKIN F. Hanliklar davri Chig'atoy adabiyoti. Edebiyat Marketi, 2015.
2. Tekin F. "Ogahiy devoni ("Ta'viz ul-oshiqin") ning lisoniy xususiyatlari (Tovush va tuzilishi)" dok.dissert. 2001. – b 5.
3. Yusupova, Q. (2023). MUNIS VA OGAHIY IJODIDA LINGVOPOETIK UYG'UNLIK. Innovative Development in Educational Activities, 2(12), 48–52.
4. Комилов Н. Мухаммадризо Огахийнинг таржимонлик маҳорати. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация иши. – Тошкент, 1970. 6-бет.

5. Dadaboyev H. *Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi xususida* // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari (Ilmiy maqolalar to'plami) – №3. – Toshkent, 2009. – B. 21-24.